

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
106 sahifa, iyun, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- | | |
|---|--|
| <p>05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi</p> <p>05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari</p> <p>05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash</p> <p>05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari</p> <p>05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti</p> <p>05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi</p> <p>05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari</p> <p>05.01.07 – Matematik modellashtirish</p> <p>05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt</p> <p>05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik</p> <p>05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari</p> <p>05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti</p> <p>05.04.01 – Telekomunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash</p> <p>05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi</p> <p>05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari</p> <p>05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari</p> <p>05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi</p> | <p>05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish</p> <p>05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar</p> <p>05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari</p> <p>10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik</p> <p>10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti</p> <p>08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi</p> <p>08.00.02 – Makroiqtisodiyot</p> <p>08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti</p> <p>08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti</p> <p>08.00.06 – Ekonometrika va statistika</p> <p>08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit</p> <p>08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit</p> <p>08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti</p> <p>08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.11 – Marketing</p> <p>08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot</p> <p>08.00.13 – Menejment</p> <p>08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari</p> <p>08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti</p> <p>08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya</p> <p>08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati</p> |
|---|--|

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Абдор Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarmulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	



QURILISH SANOATI KORXONALARINI BOSHQARISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI

Yembergenova Aynur Aydosbaevna

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti

PhD mustaqil tadqiqotchi

ORCID 0009-0000-0490-2800

Annotatsiya: Ushbu maqola qurilish sanoati korxonalarida samarali boshqaruvni ta'minlashda iqtisodiy mexanizmlarning ahamiyati va ularning amaliy qo'llanilishiga bag'ishlangan. Tadqiqotda qurilish sohasi korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tartibga solishda mavjud mexanizmlar tahlil qilinadi hamda ularning boshqaruv jarayonlaridagi o'rni va samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Xususan, investitsiyalar, moliyalashtirish, resurslarni taqsimlash va me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish kabi asosiy elementlar chuqur yoritilib, iqtisodiy mexanizmlarning innovatsion usullar bilan integratsiyalashuvi tavsiya etiladi. Mazkur maqola qurilish sanoati korxonalarini uchun strategiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish imkoniyatlarini keng qamrovda tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: qurilish sanoati, boshqaruv va menejment, boshqaruv funksiyalari, boshqaruv shakllari va tamoyillari, iqtisodiy rivojlanish, raqamlashtirish, tavakkalchilik.

Abstract: This article is devoted to the significance and practical application of economic mechanisms in ensuring effective management of construction industry enterprises. The study analyzes existing mechanisms for regulating the economic activities of construction organizations and explores their role and effectiveness in management processes. Key elements such as investment, financing, resource allocation, and improvement of the regulatory framework are examined in depth. Additionally, the integration of economic mechanisms with innovative approaches is recommended. The article highlights the opportunities for applying these mechanisms in the development and implementation of strategic plans for construction enterprises.

Keywords: construction industry, management and governance, management functions, forms and principles of management, economic development, digitalization, risk management.

Аннотация: Настоящая статья посвящена значению экономических механизмов и их практическому применению для обеспечения эффективного управления на предприятиях строительной отрасли. В исследовании рассматриваются существующие механизмы регулирования экономической деятельности строительных организаций, их роль в управленческих процессах и пути повышения эффективности. В частности, анализируются такие ключевые элементы, как инвестиции, финансирование, распределение ресурсов и совершенствование нормативно-правовой базы, а также предлагается интеграция экономических механизмов с инновационными подходами. Статья освещает возможности применения данных механизмов при разработке и реализации стратегий развития строительных предприятий.

Ключевые слова: строительная отрасль, управление и менеджмент, функции управления, формы и принципы управления, экономическое развитие, цифровизация, риск-менеджмент.

KIRISH

Mazkur maqolada qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilar ekan, avvalo, qurilish sanoati — bu ma'lum bir mamlakat hududida turar joy va noturar joy binolarini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlar majmuasidir [1]. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, qurilish sanoati korxonalarini — bu turar joy binolari va noturar joy majmualarini qurish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlardir.

Qurilish sanoati korxonalarini boshqarish deganda esa aynan ushbu korxonalarining iqtisodiy faoliyatiga turli usul va vositalar orqali ta'sir ko'rsatish tushuniladi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning iqtisodiy maqsadiga ko'ra, barcha qurilish korxonalarini quyidagi ikki guruhga bo'linadi:

ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar;



iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar.

Bundan tashqari, kapital qurilishdagi faoliyat mazmuniga ko'ra qurilish korxonalari quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- qurilish va montaj ishlarini bajaruvchi korxonalar (barcha turdagi qurilish ishlarini amalga oshiruvchi tashkilotlar);
- qurilish sanoati mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar (qurilish materiallari va mahsulotlarini tayyorlash uchun);
- qurilish transporti korxonalari (qurilish ishlab chiqarish elementlarini tashish bilan shug'ullanuvchi korxonalar);
- mexanizatsiyalashgan xizmat ko'rsatuvchi korxonalar (qurilish texnikasidan foydalanish va ularni ta'mirlash bilan bog'liq korxonalar) va boshqalar.

Umuman olganda, menejment ta'limoti rivojlanishining dastlabki bosqichlarida boshqaruv jarayonini to'g'ri tashkil etishda inson omilining bevosita va bilvosita ta'siri alohida o'rganila boshlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Menejment nazariyasi asoschilaridan biri Genri Gant (1861–1919) ilmiy boshqaruv jarayonini rejalashtirishda chizma (grafik) usulni ishlab chiqqan. Shuningdek, fransuz muhandisi Anri Fayol (1841–1925) menejmentning beshta funksiyasi — prognozlash va rejalashtirish, tashkil etish, buyruq berish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish — ni aniqlab bergan [2].

Amaliyotda esa ilk bor Genri Ford ishlab chiqarish korxonalarini boshqarishning tashkiliy tamoyillariga asos solgan. Bu bilan nafaqat boshqaruv vazifalari shakllantirilgan, balki mehnat unumdorligi oshishiga ham xizmat qilingan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir tadbirkor, korxonahabari va investor korxonaholiyaviy holatini baholash va tahlil qilish usullarini egallagan bo'lishi, va ular asosida eng to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qila olishi lozim.

XX asrning 1930-yillaridan boshlab xodimlarni boshqarishning zamonaviy bosqichiga o'tish jarayoni boshlandi. Bu davrda personal menejmenti tushunchasi vujudga keldi. Unda insonning mehnat faoliyatidagi xulq-atvori, bandlikni boshqarish, ishchi va xodimlarga qo'yiladigan talablar masalalari o'rganildi. Ushbu sohada faoliyat yuritgan olimlar qatoriga F. Rotlisberger, R. Bleyk, E. Meyo, R. Likart, K. Anjeris va boshqalarni kiritish mumkin [3].

Tadqiqotchi Elton Meyo o'z izlanishlarini xodimlarni boshqarish sohasiga bag'ishlagan bo'lib, u tomonidan «inson munosabatlari» nazariyasiga asos solingan. Ushbu nazariyaga ko'ra, mehnat munosabatlarini tashkil etishda inson omili — ya'ni ishchi-xodimlarning ijtimoiy-psixologik holati va motivatsiyasi — muhim rol o'ynaydi. E. Meyo fikriga ko'ra, ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarga insonlar o'rtasidagi munosabatlar nuqtai nazaridan yondashish zarur.

Yana bir muhim tadqiqotchi olim — Gugo Myunsterberg — o'zining «Biznes psixologiyasi» va «Psixologiya va industrial samaradorlik» nomli asarlari orqali ishchi-xodimlarni boshqarishda motivatsion yondashuvni asoslab bergan.

Menejment nazariyasining rivojlanish jarayonida «empirik maktab» (pragmatik yo'nalish) vakillari boshqaruv zarurligini inkor etgan holda ochiq empirizm g'oyalari ilgari surganlar. Ularning fikriga ko'ra, boshqaruv — bu faqat amaliy tajriba orqali shakllanadigan faoliyat bo'lib, nazariy asoslar ikkinchi darajada turadi. Empirik maktab vakillari boshqaruvga oid nazariy maslahatlar berishdan ko'ra, aniq vaziyatlarni tahlil qilish muhimligini ta'kidlagan. Ularning qarashicha, tajriba muhim bo'lishiga qaramay, faqat amaliyot asosida boshqaruv tizimini barpo etish yetarli emas. Ushbu maktabning mashhur vakillari sifatida P. Draker, R. Devis, L. Nyuman, D. Miller va boshqalarni tilga olish mumkin.

1950-yillarning boshlarida menejment nazariyasining rivojlanishida «yangi maktab» katta ahamiyat kasb etdi. Bu maktab menejmentga aniq fanlar metodologiyasini joriy etgan bo'lib, jumladan: matematik modellashtirish, mantiqiy tahlil, chiziqli dasturlash va iqtisodiy jarayonlarni matematik ifodalash usullaridan foydalangan. «Yangi maktab»ning mashhur namoyandalari — R. Akkof, L. Kleyn, V. Lyus va boshqalar — bo'lib, ushbu maktabning shakllanishi kibernetika va tizimli yondashuv asosida kechgan.

«Yangi maktab» aslida «Ijtimoiy tizimlar» maktabining mantiqiy davomidir. Ushbu yo'nalish doirasida rus olimi A.K. Gostev (1882–1941) boshqaruv nazariyasi va amaliyotiga salmoqli hissa qo'shgan. U tomonidan «Qanday ishlamoq kerak?», «Mehnatni me'yordash va tashkil etish», «Mehnat qo'llanmalari», «Madaniyat qo'zg'oloni» kabi asarlar nashr etilgan. A.K. Gostev rahbarligi ostida Mehnatni mexanizatsiyalash instituti (MMI)da mehnatni tashkil etishning yangi usullarini o'rganish, loyihalash va joriy etish, turli ixtisoslikka ega ishchilarni o'qitish va malakasini oshirish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilgan.

A.K. Gostev tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mehnatni ilmiy tashkil etish va boshqarish fanining yana bir asoschilaridan biri — P.M. Kerjensev

(1881–1940) bo'lib, u 1923–1924-yillar davomida “Mehnatni ilmiy tashkil etish”, “Tashkil etish tamoyillari”, “Vaqt uchun kurash”, “O‘zingni o‘zing tashkil et” nomli asarlarini chop ettirgan. P.M. Kerjensev ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni standartlashtirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va moddiy vositalardan oqilona foydalanish haqidagi takliflari bilan o‘z davri uchun muhim nazariy yondashuvlarni ilgari surgan.

Shuningdek, inson ehtiyojlaridan kelib chiqib, uning xulq-atvorini izohlovchi turli nazariyalar keng rivoj topgan. Ushbu nazariyalarni ishlab chiqqan mashhur olimlar qatoriga A. Maslou, E. Kat, D. Mak Klelland, F. Gersburg va boshqa mutaxassislar kiradi [4].

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash mumkinki, ilmiy nuqtai nazardan menejment bu — insonning aqliy va jismoniy qobiliyatini boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayondir.

Rossiyalik iqtisodchi olim L.T. Tkachuk menejment atamasi va uning funksiyalarini quyidagicha izohlaydi: “Menejment” atamasi bozor sharoitida faoliyat yuritayotgan tashkilotlar (korxonalar) darajasida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda qo‘llaniladi. Bu jarayon faqat sanoat korxonalari bilan cheklanmay, banklar, sug‘urta kompaniyalari, turizm agentliklari va bozorda mustaqil xo‘jalik yurituvchi boshqa iqtisodiy subyektlarni ham qamrab oladi [5].

Tkachukning ta’rifiga ko‘ra, menejment funksiyasi — bu maxsus usullar, vositalar va yondashuvlar orqali amalga oshiriladigan boshqaruv faoliyatining o‘ziga xos turi bo‘lib, u ishni samarali tashkil etish va uning ustidan nazoratni ta’minlashga qaratilgan [5]. Uning fikricha, menejmentning asosiy funksiyalari — rejalashtirish, tashkil etish, rag‘batlantirish va nazorat qilishdir. Bu esa shuni anglatadiki, ushbu funksiyalar o‘zaro uzviy bog‘langan holda faoliyat yuritadi: rejalashtirish — tashkil etish va nazoratni, tashkil etish esa rejalashtirish va rag‘batlantirishni talab etadi.

Hozirgi kunda iqtisodiy adabiyotlarda menejment funksiyalarining soni mualliflarga qarab turlicha keltirilgan: ba’zi manbalarda 4 ta, ayrimlarida 5 ta, boshqalarida esa undan ham ko‘proq funksiyalar sanab o‘tilgan. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, menejment maktablari va turli konsepsiyalar har doim ham mazmunan yagona yondashuvga ega emas.

Turli mualliflar tomonidan menejment funksiyalarining har xil talqin qilinishi, ularning turlicha tasniflanishi va ta’riflanishi “menejment” atamasining “boshqaruv” tushunchasi bilan chalkashib ketishiga olib kelmoqda. Shu sababli, bugungi kunda “menejment” va “boshqaruv” tushunchalarini farqlash zarurati dolzarb masalaga aylanmoqda.


Boshqaruv tushunchasining asosiy funksiyalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- rejalashtirish;
- kengashish va qaror qabul qilish;
- vaziyatni baholash;
- tavakkalchilik;
- tashkil etish;
- muvofiqlashtirish;
- nazorat qilish;
- tartibga solish;
- rag‘batlantirish.

(1-rasmga qarang).

Boshqaruv funksiyalarining menejment funksiyalaridan muhim farqi shundaki, menejment funksiyalari uzluksiz ishlovchi yagona tizim bo‘lib, ularning biri ikkinchisini taqozo etadi. Boshqaruvda esa funksiyalar alohida va mustaqil ravishda ham qo‘llanilishi mumkin. Masalan, “avtomobil menejmenti” iborasining ishlatilishi mazmunan noto‘g‘ri, chunki avtomobilni boshqarishda barcha menejment funksiyalarini izchil va kompleks tarzda qo‘llash mumkin emas.

Shu bois, zamonaviy ilm-fan va amaliyotda “menejment” atamasining noo‘rin ishlatilishining oldini olish, u bilan “boshqaruv” tushunchasining farqlarini aniqlashtirish lozim. Har qanday boshqaruv jarayoni ma’lum vaqt oralig‘ida belgilangan maqsadlar va natijalarga erishishga qaratilgan rejalashtirishdan boshlanishi kerak.



1-Rasm: Boshqaruv jarayoni funksiyalariz



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda qurilish sanoati korxonalarining boshqaruv jarayonlarida iqtisodiy mexanizmlarning qo'llanilish xususiyatlarini aniqlash asosiy maqsad etib belgilandi. Shu bois, quyidagi metodologik yondashuvlar asosida ilmiy izlanish olib borildi:

Tahliliy usul – qurilish sanoatida mavjud bo'lgan boshqaruv funksiyalarining nazariy asoslari chuqur tahlil qilindi.

Taqoslash usuli – menejment konsepsiyalarining tarixiy taraqqiyoti hamda klassik, empirik va zamonaviy maktablar nuqtai nazaridan solishtirma yondashuv asosida baholandi.

Deduktiv yondashuv – umumiy nazariy qarashlar asosida qurilish korxonalarining boshqaruviga oid xulosalar shakllantirildi.

Sistemali yondashuv – boshqaruv funksiyalari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi va ularning korxonalar faoliyatiga integratsiyalashuv darajasi baholandi.

Tadqiqotning asosiy ob'ekti — O'zbekiston Respublikasining qurilish sanoati tarmog'ida faoliyat yurituvchi korxonalar;

Sub'ekti esa — ushbu korxonalardagi boshqaruv faoliyatiga oid iqtisodiy mexanizmlar tizimi hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'z navbatida, ish faoliyatini rejalashtirish boshqaruvning navbatdagi funksiyasi sifatida amalga oshiriladi. Rejalashtirishning asosiy maqsadi — korxonalar va tashkilotlar oldiga qo'yilgan strategik va operativ vazifalarga erishish, shu bilan birga olinadigan foyda miqdorini maksimal darajada oshirishdan iborat. Ko'rinadiki, rejalashtirish jarayonida boshqaruvning mazmuni yuzaga chiqadi. Rejalashtirilgan ish faoliyati hamda mavjud resurslar va ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligi aynan qanday rejalashtirilganligiga bog'liq bo'ladi.

Mazkur yo'nalishda tadqiqot olib borgan olim L.A. Magalnik rejalashtirish funksiyasiga quyidagicha ta'rif beradi:

“Rejalashtirish — bu faoliyat maqsadlari va ularni amalga oshirish uchun zarur mablag'larni belgilovchi, shuningdek, bu maqsadlarga ma'lum sharoitlarda erishishning eng samarali yo'llarini ishlab chiqadigan boshqaruv funksiyasidir. U korxonalar va tashkilotlar uchun reja tuzish, uning tarkibiy qismlarini tayyorlash bilan bog'liq boshqaruv faoliyatining alohida turi hisoblanadi. Reja — bu bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar ro'yxatini, ularning ketma-ketligini, resurslarni va belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur ishlarni bajarish muddatlarini oldindan belgilab beruvchi vositadir. Zamonaviy sharoitda rejalashtirish — bu tashkilot faoliyatini takomillashtirish uchun mavjud imkoniyatlar, tashqi va ichki omillar asosida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan uzluksiz jarayondir. Rejalashtirishni bir martalik tadbir sifatida talqin etib bo'lmaydi” [6].

Boshqaruv jarayonini to'g'ri tashkil qilish o'z navbatida samarali qaror qabul qilish funksiyasiga bevosita bog'liqdir. To'g'ri qaror — bu tegishli mutaxassislar bilan maslahatlashuv asosida shakllangan, muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun eng maqbul variantni tanlash natijasidir. Har qanday boshqaruv faoliyatida ishni boshlashdan oldin tavakkal qilish zarurati mavjud bo'ladi. Bu holat nafaqat boshqaruv tajribasida, balki muqaddas manbalarimizda ham o'z ifodasini topgan.

Qaror qabul qilish funksiyasi boshqaruvdagi muhim jarayonlardan biri bo'lib, u faoliyatni boshlashga, resurslardan oqilona foydalanishga va natijadorlikka to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri qaror — bu chuqur tahlil, tajriba, maslahatlashuv va baholash orqali erishiladigan natijadir.

Boshqaruvning keyingi funksiyasi sifatida vaziyatni baholash alohida o'rin tutadi. Boshqaruv faoliyatini boshlashdan oldin har bir rahbar yoki mutaxassis mavjud sharoit va muhitni tahlil qilib, vaziyatga ob'ektiv baho berishi kerak. Bu orqali rejalashtirilgan ishni bajarish imkoniyatlari va cheklovlari aniqlanadi. Vaziyatni to'g'ri baholash — bu to'g'ri qaror qabul qilish va optimal harakat rejasini tanlash uchun zamin yaratadi.

Boshqaruvning navbatdagi funksiyasi — tashkil etish, ish faoliyatini yo'lga qo'yish va uni muvofiqlashtirish bilan bog'liqdir. Bu funksiyaning asosiy vazifasi — boshqaruv jarayonini tizimli shakllantirish, ya'ni boshqaruv tizimi elementlari va ular o'rtasidagi aloqalarni samarali yo'lga qo'yishdan iborat.

«Tashkil etish» tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Jumladan, olim B.V. Smirnov bu tushunchani quyidagicha izohlaydi:

“Tashkil etish haqida gapirganda, biz dasturning amalga oshirilishini ta'minlash yoki strategiya va rejalarni qabul qilish uchun zarur tashkiliy tadbirlar majmuasini tushunamiz” [8].

Demak, tashkil etish funksiyasi boshqaruv tizimini yaratish, vakolatlar taqsimoti, ishlab chiqarish omillari va inson resurslari o'rtasidagi uyg'unlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu orqali mehnat samaradorligini oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini ta'minlash va tartibsizlik o'rniga tartibli, tizimli faoliyatga erishiladi.

Shu bilan birga, “tashkil etish” funksiyasi boshqa funksiyalarni bog'lovchi markaziy halqa bo'lib, barcha boshqaruv elementlarining uzviy va muvofiqlashtirilgan harakatini ta'minlaydi. Uning asosiy ustunligi — inson

resurslari va ishlab chiqarish omillarining uyg'unligini ta'minlagan holda, maqsadga erishish uchun zarur me'yor va qoidalarga asoslangan mexanizmni yaratishdir.

Boshqaruvning "tashkil etish" funksiyasi boshqa funksiyalardan farqli va ustun jihatlarga ega bo'lib, u barcha boshqaruv funksiyalarining o'zaro bog'liq harakatini va ularning samaradorligini ta'minlovchi yagona funksiya, shu bilan birga mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi. Ushbu funktsiyaning muhim jihatlardan biri — inson va ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi mutanosib harakatni shakllantirishi, ma'lum tartib, reja va strategiya asosida faoliyatning amalga oshirilishini ta'minlashi, boshqaruv qoidalariga amal qilish orqali aniq vazifalarni bajarishga yo'naltirilganligidir.

Boshqaruvning nazorat qilish, tartibga solish va rag'batlantirish funksiyalari "menejment" funksiyalari qatoriga kiradi. Ular boshqariluvchi obyekt doirasida yo'lga qo'yilgan mehnat jarayonini kuzatib borish, mavjud kamchiliklarni aniqlash, ularga to'g'ri yechim taklif qilish hamda ishchi-xodimlarning mehnat samaradorligini oshirish maqsadida moddiy, ma'naviy va boshqa shakllarda doimiy rag'batlantirishni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Boshqaruvning yakuniy funksiyalaridan biri — muvofiqlashtirish bo'lib, u eng kam tadqiq qilingan, ammo amaliy jihatdan nihoyatda muhim bo'lgan funksiyalardan biridir. Uning asosiy vazifasi — boshqaruv jarayonida mehnatni to'g'ri taqsimlash bilan bog'liq muammolarni hal etish, boshqaruv tizimidagi barcha elementlarning barqaror, izchil va o'zaro uyg'un harakatini ta'minlashdir. Shu bilan birga, muvofiqlashtirish funksiyasi boshqaruvning obyekt va subyektlari o'rtasidagi munosabatlar hamda inson resurslari va ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi aloqadorlikni uyg'un holda olib borishga xizmat qiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan funksiyalardan tashqari, biz tomonidan "tavakkal qilish" tushunchasi boshqaruv faoliyatida alohida funksiya sifatida taklif etiladi. Ushbu funktsiyaning mohiyati shundaki, inson tavakkal qilish jarayonini ehtimollik asosida qabul qiladi. Biroq tavakkal qilish — bu manfaatdorligi yuqori bo'lgan faoliyatning natijasi past bo'lish ehtimoliga qaramasdan, uni amalga oshirish zarurati bilan bog'liq bo'lgan harakat turi sifatida izohlanadi. Bu yondashuv ayniqsa noaniq iqtisodiy va texnologik sharoitlarda boshqaruvning dolzarb funksiyalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Boshqaruv jarayonini tashkil etishda funksiyalardan tashqari boshqaruv tamoyillari, usullari va shakllari ham muhim o'rin tutadi. "Boshqaruv"ni tashkil etishning ushbu nazariy asoslari "menejment"da qo'llaniladigan tamoyillar va yondashuvlar bilan mos keladi.

Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishda eng muhim iqtisodiy mexanizmlar quyidagicha ajratib ko'rsatildi:

Rejalashtirish va resurslarni boshqarish. Qurilish korxonalari yuqori kapital talab qiluvchi, uzoq muddatli va ko'p bosqichli loyihalarni amalga oshiradi. Shu sababli rejalashtirishning aniqligi va uzluksizligi muhim ahamiyat kasb etadi. L.A. Magalnik tomonidan ishlab chiqilgan rejalashtirish tamoyillari qurilish loyihalarining samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Qaror qabul qilishda tavakkalchilik funksiyasi. Qurilish jarayonida inflyatsiya, ta'minot zanjiridagi uzilishlar, mehnat resurslari yetishmasligi kabi kutilmagan omillar tez-tez uchrab turadi. Shu bois, tavakkalchilik funksiyasini boshqaruvda alohida e'tibor bilan ajratib ko'rsatish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Nazorat va muvofiqlashtirish. Qurilish jarayonida bir vaqtning o'zida bir nechta pudratchi, subpudratchi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyat yuritadi. Ularning ishini muvofiqlashtirish orqali loyiha samaradorligini oshirish, byudjet va muddatlarga qat'iy amal qilish imkoniyati yaratiladi.

Innovatsion yondashuvlar integratsiyasi. Raqamlashtirish (digitalizatsiya) va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali qurilish loyihalarida moliyaviy intizom, texnologik bosqichlarning bajarilishi va sifati ustidan aniq nazoratni amalga oshirish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, samarali boshqaruv mexanizmlarining mavjud emasligi yoki noto'g'ri qo'llanilishi qurilishda xarajatlarning ortishi, loyiha kechikishlari va sifatning pasayishiga olib keladi. Shu sababli har bir qurilish korxonasida uning xususiyatlariga mos, individual boshqaruv strategiyasi ishlab chiqilishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, qurilish sanoati korxonalarini boshqarishda iqtisodiy mexanizmlarning to'g'ri qo'llanilishi yuqori samaradorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Boshqaruv funksiyalarining o'zaro integratsiyasi — xususan, rejalashtirish, nazorat, muvofiqlashtirish va tavakkalchilik elementlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik — korxonaning barqaror ishlashini ta'minlaydi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va zamonaviy menejment yondashuvlarini joriy qilish orqali boshqaruv sifati sezilarli darajada oshadi. Bularning barchasi qurilish korxonalarida iqtisodiy faoliyatni ilg'or standartlar asosida tashkil etishga xizmat qiladi.

Takliflar:

Qurilish korxonalarida boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda funksiyalarni tizimli yondashuv asosida integratsiyalash zarur. Bu boshqaruvda yaxlitlik va funksional uyg'unlikni ta'minlaydi.



Raqamli boshqaruv tizimlari (ERP, BIM, CPM va boshqalar)ni joriy etish orqali nazorat, rejalashtirish va tahlil jarayonlarini avtomatlashtirish tavsiya etiladi. Bu ish jarayonlarining aniqligini va samaradorligini oshiradi.

Tavakkalchilikni boshqarish modeli ishlab chiqilishi lozim. Bu model qaror qabul qilishda noaniqlik sharoitida samarali harakat qilishga imkon beradi.

Davlat tomonidan me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish orqali qurilish korxonalarida boshqaruv faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi institutsional muhit yaratish maqsadga muvofiq.

Qurilish menejerlari va boshqaruv kadrlarining kompetensiyalarini oshirish uchun muntazam ravishda o'quv va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish zarur. Bu inson kapitali sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Elektron manba: https://spravochnikvs.com/stroitel_naya_promyshlennost_#2
2. А.И. Орлов. Учебник. – М.: Знание, 2009. – 259 с.
3. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. – Т.: Mehnat, 2004. – Б. 352–353.
4. Абдурахмонов Қ, ва бошқалар. Персонални бошқариш. – Т.: Шарқ, 1998 й. – Б. 138.
5. Менеджмент / Л.Т. Ткачук; под ред. М.И. Щадова. – Ростов н/Д: Феникс, 2012. – 539 с. – (Высшее образование). – (С. 6).
6. Магальник Л.А. Менеджмент в сфере образования. Планирование как функция управления / рецензенты А.И. Ушаков, А.К. Костин. – Издательство Института развития образования Иркутской области, 2006. – 79 с.
7. Смирнов Б.В. Функции управления социалистическим производством. – Издательство «Экономика», 1977. – 141 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100